

PATRUL-POST XIZMATINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI.

Xojibekov Ziyomiddin Nasriddinovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti
maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik.*

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida ichki ishlar organlari patrul-post jamoat tartibini saqlash xizmatining huquqiy asoslari keng yoritildi. Maqola yakunida jamoat tartibini saqlash fuqarolar huquq va erkinliklarini qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashda patrul post xizmatining faoliyatidagi normativ-huquqiy hujjatlar ahamiyati asoslab beriladi.*

KALIT SO‘ZLAR: *Jamoat xavfsizligi, jamoat joylari, «E-patrul» tizimi, planshet, bodikamera jinoyatchilikka qarshi kurashish, mahalla, islohotlar, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, davlat organlari, yangi O‘zbekiston, jamoat tartibi, huquqiy madaniyat.*

ANNOTATION: *This article provides a comprehensive overview of the legal framework for the patrol-post public order service of the internal affairs bodies in the context of the comprehensive reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan in the field of maintaining public order and ensuring public security, and combating crime. At the end of the article, the importance of regulatory and legal documents in the activities of the patrol post service in maintaining public order, protecting the legitimate interests of citizens' rights and freedoms, and ensuring the rule of law in society is substantiated.*

KEYWORDS: *Public safety, public places, "E-patrol" system, tablet, body camera combating crime, neighborhood, reforms, rule of law, civil society, state bodies, new Uzbekistan, public order, legal culture.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zero, o‘tgan vaqt jinoyatchilikning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash ichki ishlar organlarining tashkiliy tuzilishini qaytadan ko‘rib chiqishni, ular faoliyatini tubdan takomillashtirishni, yangi tuzilmalarni tashkil etishni, hozirgi sharoitdagi vazifalarini aniq belgilab berishni va

xizmatlar faoliyati ustidan boshqaruvning quyidan yuqorigacha bo‘lgan yagona tizimini yaratilishini talab etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005 son Farmonining qabul qilinishi IIOda keng islohatning boshlanishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ushbu farmonga muvofiq keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to‘planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar ko‘rsatib o‘tildi va kelgusida ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta’minlash tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlari belgilab berildi.

Asosiysi ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, har bir xodimi tomonidan **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”**ni o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirish vazifa qilib belgilandi.

Shuningdek farmonda IIO tizimini tubdan isloh qilish ya’ni ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, vazifa va funksiyalarini maqbullashtirish, kadrlarni tayyorlash, tanlash va joy-joyiga qo‘yishning ilg‘or mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2940 son Qarori IIO jamoat tartibini saqlash Patrul-post xizmati saf bo‘linmalari faoliyatini tubdan isloh qilish uchun asos bo‘ldi.

Qarorga asosan Mamlakatda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish maqsadida quyida oltita asosiy vazifalar belgilandi:

birinchidan, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash respublika, o‘rta va quyi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifa va funksiyalarning aniq belgilanishi va taqsimlanishini hamda har bir xodimning o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun shaxsiy javobgarligini nazarda tutuvchi sifat jihatidan mutlaqo yangi tartibini o‘rnatish;

ikkinchidan, ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog‘lari, vokzallar, aeroportlar va boshqa jamoat joylarida, shuningdek ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida xizmatni o‘tashda fuqarolarning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini, ularning sha’ni va qadr-qimmatining hurmat qilinishini, muomala madaniyati va odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilinishini ta’minlash;

uchinchidan, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, ular tomonidan xizmatni o‘tash jarayonida, ayniqsa tungi vaqtlarda poraxo‘rlilik va vakolatni suiiste‘mol qilish holatlariga barham berish;

to‘rtinchidan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashning yuqori mobilligi va samaradorligini oshirishga imkon beradigan yangi ish usullarini joriy etish, huquq-tartibotning guruhlar tomonidan buzilishi va ommaviy tartibsizliklarning barvaqt oldini olish hamda bartaraf etishning ta‘sirchan tizimini shakllantirish;

beshinchidan, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatining muvofiqlashtirilishi va tashkiliy-uslubiy ta‘minlanishini kuchaytirish, mazkur sohaga yuklatilgan vazifalarni bajarishda ichki ishlar organlarining fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan yaqindan hamkorlik qilish mexanizmlarini rivojlantirish;

oltinchidan, faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash uchun maxsus qabulxonalar, vaqtincha saqlash hibsonalari va muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni rehabilitatsiya qilish markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashdan iborat.

Hozirgi tahlikali sharoitda mamlakat va uning ma‘muriy-hududiy birliklarida, ko‘cha va jamoat joylarda, ommaviy tadbirlar vaqtida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash, xususan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini har qanday jinoiy, ma‘muriy va boshqa g‘ayriijtmoiy tajovuzlardan ma‘muriy huquqiy himoyalaniшни amalga oshirishda ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196 son Farmoniga muvofiq ichki ishlar vazirligi tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimi joriy etilib beshta departament tashkil etildi, shulardan biri ko‘cha va jamoat joylarda xizmat olib boradigan va fuqarolar bilan doimiy muloqatda bo‘ladigan Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamentidir.

Farmonga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, viloyat, tuman va shahar ichki ishlar organlari boshliqlarining o'rinbosari Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimi joriy etilib ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

patrul-post va yo'l-patrul xizmati bo'linmalari faoliyatini, shuningdek, mahallalar va jamoat joylarida manzilli profilaktik tadbirlar o'tkazilishini muvofiqlashtirish;

muqaddam sudlangan va probatsiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishlash hamda ichki ishlar organlarining tungi xizmatini tashkil etish.

Bunda IIO faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yishdan iborat.

Bulardan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli Farmonida Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinib uning asosiy vazifasi etib quyidagilar belgilandi:

ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi bo'linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, kompleks tahlil qilish hamda ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etish, jamoat joylarida aholining xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari kuch va vositalarini samarali boshqarish choralarini ko'rish;

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta'minlash, profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

voyaga yetmaganlar va yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, transport vositasini boshqarishga doir cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish;

ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishni ta'minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish.

Shu bilan birga farmonda quyidagi asosiy tushunchalar berilgan:

jamoat xavfsizligi - jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u

jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi;

jamoat xavfsizligini ta’minlash - davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim.

Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo‘linmalarining jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlash, patrul-post xizmatini tashkil etish va o‘tash tartibi, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi hamda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik bilan hamkorlikdagi faoliyatidan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 399-son Qarorining qabul qilinishi ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlari tomonidan jamoat joylarida fuqarolarning shaxsini elektron texnik vositalar, shu jumladan planshet orqali aniqlash, xodimlarning fuqarolar bilan o‘zaro muloqotini qayd etib borish tartibi, patrul-post xizmati saf bo‘linmalari xodimlari harakatlarini qayd etuvchi texnik vositalardan foydalanish, «bodikamera» orqali qayd etilgan ma’lumotlarni hisobga olish va saqlash tartibi va «E-patrul» tizimidan foydalanish tartibi hamda patrul-post xizmati saf bo‘linmalari xodimlarining mazkur tizimdan foydalanish jarayonidagi majburiyatlari belgilangan bo‘lib bundan keyin fuqarolarning shaxsini aniqlash uchun ichki ishlar bo‘limiga olib borish amaliyotidan voz kechilib barcha ma’lumotlar joyida planshet orqali tekshirilib, ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlarining faoliyati «bodikamera»dan foydalangan holda amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, jumladan, jamiyatda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlashga doir ichki ishlar organlari faoliyatida va boshqa barcha sohalarida o‘tkazilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi, fuqarolarimizning tinch-xotirjam yashashi va ularning huquqlarini har-hil turdagi tajovuzlardan himoya qilish hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi tahlikali zamon barchamizdan maskur islohotlarda bevosita ishtirok etishimiz, oldimizga qo‘yilgan vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarishimiz, yon-atrofdan va mahalla-kuyda bo‘layotgan voqea va hodisalarga ayniqsa loqayd va beparvo bo‘lmasligimizni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005 son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2940 son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196 son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-iyuldagi “Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 399-son Qarorini.